

Malaka oshirish kurslarida dolzarb masalalar muhokama etilmoqda

// 23.10.2020

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/media-school>



Milliy Mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan "Media va kommunikatsiyalar maktabi" loyihasi doirasida matbuot kotiblari uchun malaka oshirish kursi o'tkazilmoqda.



Uch kun davom etadigan malaka oshirish kurslarida vazirlik, idora, tashkilot va kompaniyalar Matbuot kotiblari qatorida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati Matbuot xizmati rahbari ham ishtirok etmoqda.



Kursda axborot madaniyati sohasidagi bilimlarini oshirish, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar, inqirozli kommunikatsiyalar, taym menedjment va PR strategiya bo'yicha bilimlar shakllantirilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati